

**XVI–XVIII ASRLARDA BUXORO XONLIGI VA BOBURIYLAR
DINASTIYASI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR*****Maxmudov Dilshod****Shahrisabz davlat pedagogika instituti**Tarix kafedrası v.b. dotsenti***+998973882811**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XVI–XVIII asrlarda Buxoro xonligi va Hindiston o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, elchilik missiyalari va savdo-iqtisodiy hamkorlikning asosiy jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Diplomatik, diniy, ilmiy, elchilik, savdo-sotiq, siyosiy munosabatlar, madaniy aloqalar, hamkorlik, karvon, bojxona,*

XVI asr o‘rtalaridan boshlab Markaziy Osiyoda va Hindiston yarim orolida qudratli davlatlar shakllana boshladi. Buxoro xonligi Markaziy Osiyoda, Boburiylar imperiyasi esa Hindistonda o‘z siyosiy mavqelarini mustahkamlab, keng hududlarga hukumronlik qilgan. Bu ikki yirik davlat o‘rtasidagi geografik yaqinlik, madaniy o‘xshashlik va umumiy tarixiy ildizlar ularning o‘zaro diplomatik aloqalarini zaruratga aylantirdi. Ayniqsa, Boburiylar imperiyasi asoschisi Bobur Movarounnahrda chiqib Hindistonda o‘z davlatiga asos solgani bois, Buxoro va Hindiston o‘rtasidagi munosabatlar o‘ziga xos tarixiy ildizlarga ega ekanligi muhim hisoblanadi.

XVI asr oxirida Akbarshoh Hindiston taxtiga chiqqanidan so‘ng, davlat ichki siyosiy barqarorlikka erishdi va tashqi siyosatni faollashtirdi. Shu davrda Buxoro xoni Abdullaxon II ham o‘z xonligini mustahkamlab, tashqi aloqalarni rivojlantirishga e‘tibor qaratdi. O‘zaro manfaatlardan kelib chiqqan holda, ikki davlat vakillari o‘rtasida elchilik missiyalari almashildi. Akbarshoh Buxoro bilan savdo va siyosiy ittifoqlarni mustahkamlashga intilgan bo‘lsa, Abdullaxon II ham Hindiston bilan barqaror va foydali aloqalarni o‘rnatishni maqsad qilgan edi.



Buxoro elchilari Hindiston saroyiga yuborilganida, ular odatda savdo shartnomalarini kengaytirish, diniy va ilmiy aloqalarni mustahkamlash hamda siyosiy hamkorlikni rivojlantirishga harakat qilganlar. Hind elchilari esa Buxoroga savdo karvonlarining xavfsizligi, bojxona imtiyozlari va diniy erkinlik masalalarida muzokaralar olib borganlar. [1]

XVII asr boshlarida Jahongir davrida ham Buxoro va Hindiston o'rtasidagi aloqalar faollashdi. Jahongir o'z saroyiga Buxorolik savdogarlarga katta hurmat ko'rsatgan. Buxorolik ulamolar va olimlar Hindistonga kelib, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanganlar. "Bu davrda savdo aloqalari ham kengaygan: ipak, qimmat baho toshlar, nodir kitoblar va turli xil mahsulotlar Buxorodan Hindistonga olib o'tilgan"[2]. Bu davrda har ikki davlat iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning yo'lga qo'yilishida manfaatdar bo'lganligini ko'rish mumkin. Keyingi elchiliklar esa Ashtarxoniylar sulolasi hukumronlik davri bilan bog'liqdir. Ashtarxoniylar hukumronlik qilgan davrda ham Buxoro xonligi va Boburiylar davlati o'rtasida iliq diplomatik munosabatlar davom etgan. Ulardan – Hindistonga 1632-yili Vaqqos Hoji, 1633-yili Tarbiyatxon boshchiligida hind elchilari Balxgacha, uzoq vaqtdan so'ng Buxoro xonligidan Xo'ja Ahmad al-Husayniy 1661-yili 27-nayabr, undan so'ng esa Kuchakbek 1663-yili hind shohi qabulida bo'lganlar. Buxoro xonligida esa 1665-yili iyulda Mustafaxon Hofi elchiligi qabul qilingan. 1669-yili 11-may kuni Hindistonga Buxorodan Rustambiy boshchiligidagi elchilar kelgan, unga javoban 1670-yili may oyida Hindistondan Yakkatozxon elchiligi, so'ng 1671-yili Buxorodan Muhammad Sharif elchiligi Hindistonga, 1685 yili Buxoroga Zabardastxon, 1688-1689-yillari Nazarbiy Hindistonga, 1714-1715-yillari esa Sultonbiy elchiligi Hindistonga" kelgan.

Hindiston va Buxoro o'rtasida diplomatik munosabatlarning rivojlanishiga o'zaro elchilik missiyalarining muntazam almashinuvi katta ta'sir ko'rsatdi. Buxorodan yuborilgan qimmatbaho gilamlar, zargarlik buyumlari, Hindistondan esa ajoyib matolar, ziravorlar, san'at asarlari va qimmatbaho sovg'alar almashilgan. Bu sovg'alar o'zaro hurmat va do'stlik ramzi sifatida qabul qilingan.

Buxoro xonligi va Boburiylar davlati o'rtasidagi iqtisodiy savdo munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etgan bo'lib. Ulardan Hindistonga kelgan



Imomqulixon elchisi Abdurahimxo‘ja turli sovg‘a-salomlar bilan birga Jahongirga bir yirik la‘l tuhfa qilgan. Jahongir ham Abdurahimxo‘jaga 40 ming rupiya pul va har biri 1500, 1000, va 500 misqol og‘irlikdagi uchta oltin “kavkabi toli” hadya etgan. Demak yuqorida keltirilgan tuhfalarda asosan qimmatbaho la‘l, olmos bilan almashinib turilganligini bilish mumkin. Yana bir elchilik munosabatlarda “Abdulazizxon tomonidan hadiya qilib yuborgan qimmati 40 ming rupiyalik la‘l evaziga, Avrangzeb o‘z elchisi Mustafaxonni esa Abdulazizxon saroyiga bir lakx va ellik ming rupiya qimmatiga barobar oltin suvi yuritilgan egar jabduq, jamdar quroli, qimmatbaho qilich, qalqon, o‘qdon, bir fil va turli matolar bilan jo‘natgan. Bu yo‘sindagi savdoda esa asosan har xil matolar va nodir buyumlar hamda qimmat baho maxsulotlar bilan savdo qilishganini ko‘rishimiz mumkin” [3].

XVII asrda Buxoro xonligi Abdulazizxon boshchiligida Hindiston bilan aloqalarni yanada kuchaytirdi. Hindiston bilan savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarni kengaytirish choralari ko‘rdi. “Hindiston bozorlarida Buxoro savdogarlari uchun katta imkoniyatlar yaratilgan edi. Bu davrda Buxoro va Hindiston o‘rtasida muntazam karvon yo‘llari orqali savdo aloqalari olib borilgan. Karvonlarga har ikki davlat hukmdorlari tomonidan maxsus rasmiy xujjatlar asosida aloqalar mustahkamlangan”[4].

XVI–XVII asrlarda Buxoro va Hindiston o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning yana bir muhim jihati diniy va ilmiy hamkorlik bo‘ldi. Hindistonda faoliyat olib borgan Buxorolik ulamolar, xususan, Naqshbandiya tariqati vakillari Boburiylar saroyida hurmat qilingan va diniy ta‘limotning rivojlanishiga hissa qo‘shganlar. Shu tarzda madaniy va diniy ta‘sir o‘zaro mustahkamlangan.

XVIII asrga kelib, Boburiylar imperiyasining zaiflashuvi va Buxoro xonligining ichki muammolari diplomatik aloqalarning sekinlashishiga sabab bo‘ldi. Hindistonda ichki nizolar va tashqi bosqinlar kuchaygani bois, diplomatik faoliyat o‘z avvalgi darajasida davom etmadi. Biroq shu sharoitda ham Buxoro xonlari Hindiston bilan savdo va madaniy aloqalarni to‘xtatmaslikka harakat qilganlar. Savdo karvonlari soni kamaygan bo‘lsa-da, ularning faoliyati mutlaqo to‘xtamagan.



XVIII asr oxirlarida Hindistonda Britaniya Sharqiy Hind kompaniyasining siyosiy va iqtisodiy ustunligi kuchaya boshladi. Bu holat Buxoro va Hindiston o'rtasidagi an'anaviy diplomatik va savdo munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Buxoro xonligi endi "Hindiston bilan bevosita emas, balki Britaniya vositachiligi orqali aloqa o'rnatishga majbur bo'ldi. Bu esa ilgari mavjud bo'lgan erkin va bevosita diplomatik aloqalarning cheklanishiga olib keldi" [5].

Buxoro xonlari diplomatik munosabatlarni saqlab qolish uchun yangi yo'llarni izlay boshladilar. Ayrim tarixiy hujjatlarga ko'ra, XVIII asr oxirida ham Buxoro elchilari Hindistonga yuborilgan, ammo ularning siyosiy ta'siri oldingi davrdagidan ancha past bo'lgan. Diplomatik va savdo aloqalar sekin-asta mustamlakachilik siyosatining bosimi ostida o'z ahamiyatini yo'qota boshladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, XVI–XVIII asrlarda Buxoro xonligi va Hindiston o'rtasidagi diplomatik aloqalar ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy hamkorlik asosida rivojlangan. Ushbu aloqalar har ikki xalq tarixida muhim iz qoldirgan. O'zaro elchilik missiyalari, savdo karvonlari va madaniy aloqalar nafaqat ikki davlat manfaatlariga xizmat qilgan, balki kengroq mintaqaviy o'zaro ta'sirlarni ham shakllantirgan. Garchi XVIII asr oxirlarida siyosiy vaziyat o'zgarib, aloqalar zaiflashgan bo'lsa-da, tarixda Buxoro va Hindiston o'rtasidagi diplomatik aloqalar yorqin sahifalardan biri sifatida o'z o'rnini saqlab qolgan.

MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Bobojon G'afurov "Tojiklar. 1-tom". Dushanbe-1972, 415-417-betlar.
2. M.E. Masson, V.M. Masson "Markaziy Osiyo tarixi". Moskva-1964, 302-305-betlar.
3. H.Yakubov "Buxoro davlatining qo'shni mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy va elchilikmunosabatlari (XVI-XIX asrlar)". [BUKHARA STATE WITH NEIGHBORING COUNTRIES TRADE - ECONOMIC AND EMBASSY RELATIONS \(XVI - XIX CENTURIES\)](#)
4. Anvar Qayumov "O'rta asrlar Markaziy Osiyo va Hindiston aloqalari". Toshkent-1998, 142-146-betlar.



5. Richard M. Eaton "India in the Persianate Age, 1000–1765". University of California Press-2019, 217-221-betlar.
6. Nomozov, Xurshid. "OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOIIY FUNKSIYASI." *TAMADDUN NURI JURNALI* 1.64 (2025): 253-255.
7. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYAT IJTIMOIIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O'RNI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 83-88.
8. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOIIYLASHUV SHAKLLARI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR*, 1(2), 52-58.
9. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 113-118.
10. O'G'Li, Nomozov Xurshid Shavkat. "YUKSAK AXBOROT MADANIYATI–INTERNET-MAKON RESURLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI." *Research Focus* 2.6 (2023): 105-110.
11. Nomozov, Xurshid (2022). THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 229-231.
12. Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJLARINING MANBALARI, ULARNING IJTIMOIIY MUHITDA AMALGA OSHISH USULLARI." *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari* 41.1 (2025): 632-636.
13. Ganiev, A. G., et al. "A Mind Map to Show the Place of the Generations of the Baburians in the World Civilization." *Annals of the Romanian Society for Cell Biology* 25.2 (2021): 643-648.
14. Махмудов, Дилшод Абдухалил Ўғли. "ИЛК ЎРТА АСРЛАРГА ОИД МАРКАЗИЙ СУҒДНИНГ ШИМОЛИ ВА ШИМОЛИ-ШАРҚИДАГИ ЙИРИК АҲОЛИ МАСКАНЛАРИ." *Scientific progress* 2.7 (2021): 39-47.